

MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHDA BOZOR TENDENSIYALARINI OLDINDAN ANIQLASH VA REAL VAQT MONITORING TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Aralov G'ayrat Muhammadiyevich

QarMII mustaqil izlanuvchisi

aralov.gayrat12131988@gmail.com

ANNOTASIYA: Mehnat bozorini optimallashtirish masalalari ko'rib chiqishda xususan, mehnat bozoridagi tendensiyalarni oldindan aniqlash va real vaqt monitoring tizimlaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyotda mehnat bozori barqarorligini ta'minlashda dinamik o'zgarishlar va ularga moslashishning zarurligi qayd etiladi. Bundan tashqari real vaqt monitoring tizimlari yordamida mehnat resurslarini samarali boshqarish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalari o'rganilgan.

АННОТАЦИЯ: При рассмотрении вопросов оптимизации рынка труда, в частности, анализируется важность использования систем мониторинга в режиме реального времени и раннего выявления тенденций на рынке труда. Динамические изменения и необходимость адаптации к ним отмечаются в современной экономике в обеспечении стабильности рынка труда. Кроме того, с помощью систем мониторинга в режиме реального времени изучались вопросы эффективного управления трудовыми ресурсами, обеспечения баланса между спросом и предложением рабочей силы.

ANNOTATION: When considering issues of optimizing the labor market, in particular, the importance of using real-time monitoring systems and early identification of trends in the labor market is analyzed. Dynamic changes and the need to adapt to them are noted in the modern economy in ensuring the stability of the labor market. In addition, with the help of real-time monitoring systems, issues of effective labor resource management, ensuring a balance between demand and supply of labor were studied.

Kalit so'zlar: Mehnat bozori, iqtisodiy model, innovasiya, jahon tajribasi, iqtisodiy nazariya, iqtisodiy yondashuv.

Ключевые слова: Рынок труда, экономическая модель, инновации, мировой опыт, экономическая теория, экономический подход.

Key words: Labor market, economic model, innovation, world experience, economic theory, economic approach.

Mehnat bozorini optimallashtirishning zamonaviy uslublarining umumiy ahamiyatining zamonaviy uslubiyotlar orqali barqaror rivojlanish va bandlikni oshirishga erishish hamda mehnat bozorini optimallashtirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi, chunki mehnat bozori iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Rivojlanayotgan texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt sohalaridagi o'zgarishlar mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va avtomatlashtirilgan tizimlar rivojlanishi ish o'rinlariga yangi talablarni keltirib chiqarmoqda va mehnat resurslariga qo'yiladigan talablar o'zgarib bormoqda. Yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani sababli ta'lim va kasbiy malaka oshirish dasturlarining ahamiyati oshdi. Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni saqlash, qisqa muddatli va bo'sh ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar mehnat bozorining barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.



Shu bilan birga, ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlar uchun ish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiy imkoniyatlarni har bir hududda teng taqsimlash masalalari ham mehnat bozorini optimallashtirishni talab etmoqda. Mazkur yechimlar orqali milliy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va barqarorlikka erishish mumkin. Zamonaviy uslubiyotlardan foydalanish mehnat bozorida samaradorlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va platforma iqtisodiyoti kabi zamonaviy texnologiyalar orqali mehnat bozoridagi talab va taklifni aniqlash, ishchi kuchi ehtiyojlarini prognoz qilish, va bandlik darajasini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Zamonaviy uslubiyotlar iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamlashtirish yordamida mehnat bozoridagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish samaradorligi oshadi. Katta ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari orqali mavjud ish o'rinlari, ishchi kuchining malaka darajasi, soha va hududlarga ko'ra talab o'zgarishlari haqidagi batafsil tahlillar amalga oshiriladi. Ushbu tahlillar asosida mehnat bozoridagi yangi talablar aniq bashorat qilinadi va ularni qondirish uchun zaruriy choralar belgilab olinadi.

Natijada, raqamlashtirish vositasida olingan tahlillar mehnat bozorining talablariga mos kadrlarni tezkor tayyorlash va bozorga yo'naltirishda samaradorlikni oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida mehnat bozoridagi ehtiyojlarni tez va aniq aniqlash, shuningdek, bandlik darajasini oshirish imkoniyati mavjud. SI algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali ishchi kuchiga bo'lgan talabni aniq bashorat qilishi va bozor ehtiyojlariga mos ishchi kuchini yo'naltirishni optimallashtirishi mumkinligini ko'rsatadi hamda bandlikni oshirish va ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga katta yordam beradi.

Mehnat bozorini optimallashtirishda bozor tendensiyalarini oldindan aniqlash va real vaqt monitoring tizimlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar mehnat bozoridagi talab va taklif o'zgarishlarini tezkor kuzatib borish va ularga mos ravishda chora-tadbirlar ko'rishga imkon beradi.







Bozor talabini prognoz qilish orqali mehnat bozorida kelajakdagi talabni oldindan aniqlash va tegishli yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Bu usul ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur choralarini ko'rishga yordam beradi.

Real vaqt monitoring tizimlari mehnat bozoridagi bandlik darajasini doimiy kuzatib borish imkoniyatini beradi. Bandlik darajasidagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish va tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni saqlash iqtisodiy barqarorlik va bandlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Prognoz qilish usullari yordamida talab va taklifning kelajakdagi o'zgarishlarini oldindan aniqlash va ularga mos chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Bu jarayon ishchi kuchini zaruriy sohalarga to'g'ri yo'naltirish va bozor ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi.



Talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni prognoz qilish orqali ish o'rinlarini to'g'ri rejalashtirish va yangi ishchi kuchi talabini bashorat qilish mumkin. Bu usul bozor o'zgarishlariga mos ravishda ishchilarni o'z vaqtida tayyorlash va bandlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Prognoz qilish natijasida talab va taklif o'rtasida ortish yoki kamlik yuzaga kelgan holatlarni aniqlash mumkin. Bu esa qaysi sohalarda ish o'rinlarini ko'paytirish yoki mehnat resurslarini taqsimlashga ehtiyoj borligini belgilaydi va bozorning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Juraev, F. D., Mallaev, A. R., Aralov, G. M., Ibragimov, B. S., & Ibragimov, I. (2023). Algorithms for improving the process of modeling complex systems based on big data: On the example of regional agricultural production. In E3S Web of Conferences (Vol. 392, p. 01050). EDP Sciences. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339201050>
2. Жўраев , Ф. Д., & Аралов, Г. М. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ЗАРУРИЯТИНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 36–43. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1684>
3. Аралов, Г. М. (2022). ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА ЕНГИЛ САНОАТИНИНГ КЛАСТЕР УСУЛИ ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШИ СИФАТИ. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 138–142. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/498>
4. Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich, Aralov G'ayrat Muhammadiyevich, & Eshonqulov Javohir Sobirovich. (2023). Problems of Management of Technological Systems Under Uncertainty: Models and Algorithms. Global Scientific Review, 19, 39–48. Retrieved from <https://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/274>
5. Jo'rayev Farrukh Do'stmirzayevich, & Aralov G'ayrat Muhammadiyevich. (2023). ANALYSIS OF FUNCTIONS OF BELONGING AND ASSESSMENT OF THE STATE OF THE CONTROL OBJECT. World Economics and Finance Bulletin, 23, 85–90. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/2895>
6. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Г. М. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(4), 31–43. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2870>
7. Jo'rayev, F., & Aralov, G. (2024). MEHNAT BOZORINI SHAKLLANTIRISHNING HUDUDIY MANBALARI TAHLILI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(3), 39–48. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp39-48>
8. Ochilov Murodjon Ashirqulovich, Aralov G'ayrat Muhammadiyevich, & Eshqobilov Sirojiddin Berdimurodovich. (2023). ADVANTAGES OF FUZZY CONTROL. FUZZY CONTROLLER WITH TWO BASIC RULES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 342–345. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/4911>
9. Аралов, Г. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СМАРТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТИЗИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИННОВАЦИОН РЕСУРСЛАРИНИ АНИҚЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 37–42. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a6
10. Фаррух, Ж., & Ғайрат, А. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛФОР ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА Қўллаш Имкониятлари. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 264–275.

